

**Tish, tish qatorlari va prikus
anomaliyalarining tasnifi, ularni
tashxislash. Patologik va fiziologik
prikusni aniqlash. Tjt
anomaliyalari va
deformatsiyalarining etiologiyasi
va patogenezi**

**Nigmatov R.
Aripova G.
Murtazaev C.
Nazarova S.
Akbarov K.**

inLibrary

 **Google**
Scholar

inScience
through time and space



TUZUVCHILAR:

R.N. Nigmatov - professor, Toshkent davlat stomatologiya institute ortodontiya va tishlarni protezlash kafedrası mudiri

G.E. Aripova - t.f.d., Toshkent davlat stomatologiya instituti ortodontiya va tishlarni protezlash kafedrası dotsenti

C.C. Murtazaev – t.f.d., Toshkent davlat stomatologiya institute ortodontiya va tishlarni protezlash kafedrası dotsenti

S.J. Nazarova - Toshkent davlat stomatologiya institute ortodontiya va tishlarni protezlash kafedrası assistenti

K.C. Akbarov - Toshkent davlat stomatologiya institute ortodontiya va tishlarni protezlash kafedrası assistenti

TAQRIZCHILAR:

S.S. Gulyamov – Otorinolaringologiya va bolalar stomatologiyasi kafedrası professori, ToshPTI ilmiy ishlar bo'yicha prorektori, tibbiyot fanlari doktori.

A.N. Akbarov –TDSI Fakultet ortopedik stomatologiya kafedrası mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor.

Uslubiy tavsiyalar Toshkent davlat stomatologiya institutining
20__ «__» ____-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan Markaziy
Metodik Kengashi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Uslubiy tavsiyalar Toshkent davlat stomatologiya institutining
20__ «__» ____-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan Ilmiy Kengashi
yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Ilmiy kotib, t.f.d.

Yuldashev A.A.

1. 6,0 soatlik o'quv mashg'ulotining xronologik xaritasi

<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Amaliy mashg'ulot
<i>O'quv mashg'ulotining tuzilishi</i>	1. Kirish qism. 2. Nazariy qism. 3. Analitik qism: Organayzerlat tuzish: - Klaster «Tasniflar» - Test va vaziyatli masalalar echish 4. Amaliy qism.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	- Tish, tish qatorlari va prikus anomaliyalarining tasnifi, ularni tashxislash turlari bilan talabalarni tanishtirish; - Patologik va fiziologik prikusni aniqlash usullari bilan talabalarni tanishtirish; - TJT anomaliyalari va deformatsiyalarining etiologiyasi va patogenezi asoslarini talabalarga tushuntirish;
<i>Talaba bilishi kerak:</i>	- Tish, tish qatorlari va prikus anomaliyalarining tasnifi, ularni tashxislash turlarini bilishi kerak; - Patologik va fiziologik prikusni aniqlash usullarini bilish kerak va ularni farqlashi kerak; - TJT anomaliyalari va deformatsiyalarining etiologiyasi va patogenezi asoslarini talabalar bilishi kerak
<i>Talaba bajara olisi lozim:</i>	- Tish, tish qatorlari va prikus anomaliyalarini tasniflashni; - Patologik va fiziologik prikus turlarini; - TJT anomaliyalari va deformatsiyalarining etiologiyasi va patogenezi asoslarini;

<i>Pedagogik vazifalar:</i> Tish, tish qatorlari va prikus anomaliyalarining tasnifi, ularni tashxislash usullari bilan tanishtirish. Patologik va fiziologik prikusni aniqlash usullarini ko'rsatish. TJT anomaliyalari va deformatsiyalarining etiologiyasi va patogenezi asoslarini talabalarga o'rgatish.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> Talaba bilishi kerak - Tish, tish qatorlari va prikus anomaliyalarining tasnifi - Ularni tashxislash usullarini - Patologik va fiziologik prikusni turlarini - TJT anomaliya va deformatsiyalarining etiologiyasi va patogenezi asoslarini Talaba qila olishi kerak - Tish, tish qatorlari va prikus anomaliyalarini tashxislashni - Patologik va fiziologik prikusni turlarini farqlashni - Klinik fikrlashni
<i>Ta'kim usullari</i>	Ma'ruza, aqliy hujum, hikoya, namoyish, videousul, amaliy ish usuli, kitob bilan ishlash, suhbat, ta'limiy oyin, pinbord, organayzer.
<i>Ta'lim shakli</i>	Jamoaviy, guruhlarda ishlash («Birgalikga o'qiymiz», «O'ylang-Juftlikda ishlang-Fikr almashing»), yakka tartibli
<i>Ta'lim vositalari</i>	Doska-stend, flipchart, videofilmlar, yozuv taxtasi, model, mulyajlar, grafik, diagrammalar, sxema, eslatma, nazorat varag'i, matnlar.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	- Ortodontiya va tishlarni protezlash kafedresi, ortodontik kabinet - turli ortodontik anomaliyalar aks etgan jag'larning diagnostic modellari Tablitsalar: - ortodontik anomaliyalar tasnifi - elektrifitsirlangan stend «Englning 3 sinffi»
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor so'rov, yozma so'rov:test

2. O'quv mashg'ulotining maqsadi va vazifalari

Anomaliya - bu normadan o'zgarish, ortodontiyada "norma" tushunchasi unga nisbatan o'zgarishni aniqlash uchun qo'llaniladi. Ortodontiyada ortognatik prikus shartli ravishda fiziologik prikus sifatida qabul qilingan.

Tasnif tashxis qo'yish, davolash usulini tanlashni osonlashtiradi, shifokorlarga o'zaro tushinarli va o'zgarishlarni qisqa tushinarli ifodalaydi. Ortodontiyada yagona tasnif qabul qilinmagan. Vrach ortodont o'zining umumiy amaliyotida tish jag' tizimi anomaliyalarini tashxislashda moc tasnifni qo'llashi kerak. Talabalarga ortodontik stomatologiyadan berilgan mavzularni o'zlashtirishda prikus tushunchasi, fiziologik prikus turlari, ortognatik prikus belgilarini bilishlari asos bo'lib xizmat qiladi. Mashg'ulot vaqtida tish, tish qatorlari va prikus anomaliyalariga tashxis qo'yishda olgan tushunchalarini ishlata olishga imkon beradi.

3. Nazariy qism

Ortodontik tasniflar tuzilish prinsipiga ko'ra bo'linadi:

- etiopatologik
- morfologik
- funksional
- klinik-morfologik

Kontarovichning etiopatogenetik tasnifi.

- Endogen sabablar chaqiradigan: progeniya, chuqur prikus, diastema.
- Ekzogen sabablar chaqiradigan:
- Distal prikus-pastki jag'ning distal joylashishi natijasida kelib chiqadi.

Kamchiligi:

- Ko'pincha etiologiyani aniqlashni imkoni bo'lmaydi.
- Bitta anomaliya ham endogen, ham ekzogen sabablar ta'sirida kelib chiqishi mumkin.
- Tish jag' sistemasi rivojlanishini normalizatsiyatsiga olib keladigan sabablarni hisobga olinmagan.

Professor A.I. Betelman iborasi bilan aytganda, fiziologik prikus deb, tish yoylarining bir-biri bilan shunday jipslashuvi tushiniladiki, bunda qisqa vaqt va oz kuch sarflab, ovqat luqmasi maksimal maydalanishi, shuningdek tishlarning chaynov bosimiga nisbatan mustahkamligi va chidamligi ta'minlanishi kerak. Tish yoylarining jipslashuv munosabatlariga ko'ra prikuslar 4 turga ajratiladi. Ularga ortognatik prikus, to'g'ri prikus, fiziologik progeniya va fiziologik opistognatiya kiradi.

Ortodontiyada ortognatik prikus norma deb qabul qilingan. Ideal ortognatik prikus xarakterlanadi:

- Barcha tishlarning maksimal kontakda bo'lishi
- Pastki jag'da markaziy kesuvchi tish va yuqori jag'da aql tishdan boshqa barcha tishlar ikkitadan antogonistga ega bo'ladi.
- Yuqorigi va pastki markaziy kurak tishlar orasidan o'tuvchi o'rta chiziq yuzning o'rta chizig'iga mos kelishi kerak.
- Yuqorigi frontal tishlar pastki frontal tishlar toj kismining 1/3 ni qoplab turishi kerak.
- Kesuv-qirrali kontakning bo'lishi
- Yuqorigi 1-molyarning medial lunj dumbog'i pastki 1-molyarning dumboqlararo fissurasida yotishi kerak.
- Yuqorigi chaynov tishlarining lunj dumboqlari pastki shu dumboqlardan tashqarida yotishi kerak. Yuqori jag yon tishlarining toj qismi tashariga, ildiz qismi esa ichkariga, pastki jag yon tishlarining toj qismlari ichkariga va ildizlari tashqariga egilgan bo'ladi. Buning natijasida yuqori jag' tishlarining lunj do'mboqlari pastki jag' tishlarining lunj do'mboqlarini qoplab turadi. Bu vaqtda pastki jag' tishlarining til tomonidagi do'mboqlari, yuqori jag' tishlarining tanglay do'mboqlari ustida kurinib turadi. Pastki jag tishlarining toji markaz tomon, ildizlari esa distal tomonga og'ishgan bo'ladi.

Klinikada tishlar rivojlanishi va jag' anomaliyalaridan ko'pincha tishlar joylashuvining buzilishi, yuqori va pastki jag' tish yoylari shaklining va ularning sagittal, vertikal, transverzal yo'nalishlarda bir-biriga bo'lgan munosabatlarini

(prikus anomaliyasi) o'zgarishi uchraydi. Bu o'zgarishlar natijasida bolaning tashqi ko'rinishi, chaynashi, gapirishi, yutishini va nafas olishi kabi faoliyatlari buziladi. Tish qatorlarining shakl o'zgarishlariga ularning yon tomonda torayishi va oldinda kengayishi, sagittal, vertikal, transversal yo'nalishlarda uzayishi yoki qisqarishi kiradi. Prikus anomaliyalariga esa qabul qilingan normal jagl'ar munosabatidan (ortognatik prikus) tashqari holatlar misol bo'ladi.

Tish jag' tizimi anomaliyasi va deformatsiyalarini o'rganish, tashxis qo'yish va davolashda qulaylik yaratish uchun XIX asrdan boshlab butun tish va jaglar rivojlanishining buzilishlarini bir tizimga yigish va tasnifga solishga harakatlar mavjud bo'lgan. Shu davrgacha tasniflar tishlarning to'g'ri-noto'g'ri joylashuvi to'g'risida tuzilgan ta'riflardan iborat edi. Bu tasniflar o'sha davrga xos davolash usullarini aks ettirib, faqat tishlar joylashuv anomaliyasini davolash bilan chegaralangan edi (Foks 1803, Knayzel 1836 va boshqalar). Biroq keyingi paytlarda prikus anomaliyasiga doir tasniflar paydo bo'ldi. Ortodontiyaning rivojlanishi hamda etiologiyasi va patogenezi to'g'risida klinik ma'lumotlarning to'planishi, tish jag' tizimining turli shakl o'zgarishlarini uo'ganish keyingi mualliflarda faqat tish qatorlarining oldingi qismi munosabatini emas, balki yon tomonlarining normal va patologik jipslashish holatlari munosabatiga doir tasniflar yaratishga kirishish kuzatildi.

Shunday tasnifga E. Engl (1889) tomonidan tish jag tizimi anomaliyalarini birinchi doimiy katta oziq tishlarning medial yoki distal munosabatlariga bog'liqligini aniqlab tuzilgan tasnif misol bo'la oladi. U birinchi katta oziq tishlarning munosabatini «jipslashish yoki okklyuziya kaliti» deb nomlaydi. Bundan tashqari, Engl yuqori jag'dagi birinchi doimiy molyar bu barqaror nuqta, chunki: yuqori jag'ning bosh miya suyaklari bilan chambarchas bog'langanligi, oziq tishlarning doimo aniq joyidan, ya'ni ikkinchi sut oziq tishning orqasidan chikishi va oziq tishlarning joylashishidagi atipik holatlar pastki jag'ning noto'g'ri joylashishi bilan bog'liqdir, deydi. Hamma tish jag anomaliyalarini muallif 3 sinfga bo'ladi.

I sinf-tish yoylarining birinchi katta oziq tish sohasida neytral yoki normal meziodistal munosabatda bo'lishi bilan tavsiflanadi. Yuqori jag'ning birinchi katta oziq tishining medial-lunj do'mbog'i pastki jag' birinchi katta oziq tish lunj do'mboqchalari orasidagi egatchada yotadi. Patologik holat tish yoylarining oldingi guruhdagi tishlari sohasida bo'ladi.

II sinf-pastki jag' birinchi katta oziq tishining yuqorigiga nisbatan distal tomon siljishi bilan tavsiflanadi. Bu vaqtda yuqori jag' birinchi katta oziq tishining medial lunj do'mbog'i pastki jag'ning birinchi katta oziq tishning shu nomli do'mbog'ida yoki oltinchi va beshinchi tish tojlari oralig'ida yotadi. Yuqori tish do'mboqchasining joylashuvi deformatsiyaning holatiga qarab bo'ladi. Yuqori va pastki jag' tishlar munosabatining buzilishi butun tish qatorlarida kuzatiladi. Bu sinf ifodalanishiga ko'ra ikki qismga bo'linadi va quyidagicha tavsiflanadi:

a) pastki jag' birinchi katta oziq tishlarning ikki tomonlama distal siljishi va bu vaqtda yuqori jag'ning oldingi guruh tishlari lab tomonga og'gan va ular orasida tremalat, yuqori va pastki frontal tishlar orasida sagittal tirqish mavjudligi.

b) yuqori va pastki jag' birinchi katta oziq tishlarining distal munosabati va bu vaqtda yuqori jag' oldingi guruhdagi tishlarini og'iz bo'shligi tomon egilib, zich joylashishi va pastkilarni chukur qoplashi bilan ifodalangan.

III sinf-pastki jag' birinchi katta oziq tishining yuqoriga nisbatan medial tomonga siljishi bilan tavsiflanadi. Bu vaqtda yuqori jag' birinchi katta oziq tishining medial lunj do'mbog'i pastki jag'ning birinchi katta oziq tishining distal-lunj do'mbog'ida yoki oltinchi va yettinchi tishlar oralig'ida yotadi. Pastki jag' oldingi guruh tishlari yuqoridagilarni oldinda qoplab turadi. Ko'pincha yuqori va pastki jag'ning oldingi guruh tishlari orasida tyeskari sagittal yoriq kuzatiladi. Yon tishlar sohasida esa deformatsiyaning og'ir kechgan turlarida pastki tishlarning lunj do'mboqchalari yuqoridagi bir xil nomlanadigan tishlarni qoplab turishi mumkin.

Engl tasnifi faqat morfologik bo'lib, uning oltinchi tishlarning bir-biriga bo'lgan munosabatiga asoslanishi ahamiyati har doim ham anomaliyalarning klinik ko'rinishiga to'g'ri kelavermaydi. Shuningdek, bu tasnif sut tishlari va ular almashuvi vaqtidagi prikuslarga xos emas va shakl o'zgarishlarining kelib chikish

mexanizmi, hamda u bilan bog'liq bo'lgan faoliyatdagi buzilishlarni hisobga olmagan.

A.Y. Kats (1939) Engl tasnifidagi asosiy bo'lgan jipslashuv kaliti degan ma'noni yo'qotib o'z tasnifini yaratadi. Uning asosida tish va uning butun qatorlarining munosabati, shuning bilan birga chaynov va mimika mushaklarining faoliyati xususiyatlari hamda anomaliyaning etiologiyasi, klinikasi tugrisidagi ma'lumotlar yotadi. A.Y. Kats buyicha prikus anomaliyalari 3 guruxga bulinadi:

1) faqat oldingi guruhdagi tishlarning morfologik o'zgarishi bilan kechadigan anomaliyalar.

2) pastki jag' birinchi katta oziq tishining qarama-qarshi turgan shu nomli tishga nisbatan distal tomonga surilgan. Markaziy jipslashuv holatida yon tishlar sohasida do'mboqchalararo jipslashgan, keskin rivojlangan anomaliyada esa yuqori jag'ning birinchi katta oziq tishning pastki jag'ning ikkinchi kichik oziq tish bilan jipslashishi kuzatiladi. Oldingi guruhdagi tishlar sohasida chuqur prikus bo'ladi, ochiq prikus holatlari kam uchraydi. Bu xil shakl o'zgarishlarda patologiyaaning morfologik xususiyatlari faoliyat bilan chambarchas bog'langandir. Chunki bu anomaliyada faoliyat ko'rsatayotgan tish yoylarining chaynov yuzalari soni kamayadi va do'mboqcha egatcha turdagi tish chaynov yuzalarining jipslashishi kuzatilmaydi. Barcha chaynov mushaklarining faoliyati orqada qoladi. Ayniqsa pastki jag'ning oldinga harakat qilishida ishtirok etadigan qanotsimon lateral mushaklarning faoliyati qoniqarli bo'lmaydi.

3) anomaliya morfologik jihatdan pastki jag' birinchi katta oziq tishlari qarama-qarshi turgan shu nomdagi tishlarga nisbatan medial tomon surilgani bilan tavsiflanadi. Markaziy jipslashuv holatida hamma pastki tish qatorlari oldinga surilgan, old guruhdagi tishlar yuqori old tishlarni qoplab turadi. Anomaliya keskin ifodalanganda pastki jag'ning yon tishlari yuqori yon tishlar lunj dumboqchalarini qoplab turadi. Chaynov mushaklarning faoliyati susayadi. Jag'ning oldinga harakatida ishtirok etuvchi qanotsimon lateral mushak faoliyati, jag'ni orqaga suradigan mushaklar faoliyatidan ustun turadi. Bir-biriga qarama-qarshi mushaklar faoliyatining mos bo'lmasligi anomaliyaga shakl kiritib, muayyan holda saqlab

turadi. A.Y. Kats 1 guruhiga vertikal va transversal yo'nalishdagi anomaliyalarni alohida tishlarning joylashuvi anomaliyasi bilan qo'shadi. Bu esa tasnif mohiyatini tushiradi.

A.I. Betelman (1956) birinchi bo'lib prikus anomaliyalarini hamma yo'nalishlarda (sagittal, vertikal, transversal) o'rgangan. Shuning bilan Kats bo'yicha barcha faoliyat o'zgarishlarini aniqlagan. Patologik prikuslarni tavsiflashda A.I. Betelman ortognatik prikus uch yo'nalishining morfologik belgilariga asoslanadi. Shu uch yunalishda tish qatorlarining bir-biriga munosabati buzilishi prikusning patologik shakllari kelib chikishiga sabab bo'ladi degan fikr bildirib, muallif sagittal, vertikal, transversal anomaliyalar haqida tasnif yaratadi.

1) Sagittal anomaliyalarga tish qatorlarining mezio-distal yo'nalishda surilishi natijasida hosil bo'lgan anomaliyalar, ya'ni distal va mezial prikuslar kiradi. Distal prikusda pastki jag' distal holatda bo'lishi va uni oldinga olib chiquvchi va og'iz aylana mushaklarning faoliyati susayishi bilan tavsiflanadi. Distal prikus;

1 shakl - pastki mikrognatiya,

2 shakl - yuqorigi jag' makrognatiya,

3 shakl - yuqorigi makrognatiya va pastki mikrognatiya,

4 shakl – jag'ning ikki yon tomonidan siqilgan holatdagi yuqori jag prognatiyasi.

Mezial prikusda, aksincha, pastki jag' oldinda joylashgan bo'lib, uni oldinga harakatlantiruvchi mushaklar tarangligi ortib, pastki jag'ni orqaga tortuvchi mushaklar faoliyati esa susaygan bo'ladi. Mezial prikus;

1 shakl — yuqorigi mikrognatiya,

2 shakl — pastki makrognatiya,

3 shakl — yuqorigi mikrognatiya va pastki makrognatiya.

Klinikada distal va mezial prikuslarning shunday ko'rinishlari uchrab turadiki, ular faqat jag' suyaklarining o'lchami o'zgarishi tufayli emas, balki ular chaynov apparatining morfologik xususiyatlaridan ham yuzaga kelgan. Yani, pastki jag' burchagining katta-kichikligi, bo'g'im chuqurchasida bo'g'im

boshchasining joylashuvi, mushaklarning taraqqiy etganligi va boshqalarga bog'liqdir.

2) Vertikal anomaliyalarda yuqori jag'ning oldingi guruh tishlari, pastki jag'ning old tishlarini ortognatik prikusdagidan o'zgacha qoplab turishi bilan tavsiflanadi. Bu o'zgarishlarning ikki xil shakli farqlanadi:

1. Chuqur prikus,
2. Ochiq prikus.

Agar yuqori jag'ning oldingi guruh tishlari pastkilarning 1/3 qismidan ko'prog'ini qoplasa, pastki jag' oldingi guruh tishlari kesuv yuzalari bilan yuqori old tishlarining do'mboqchasidan sirg'alib qattiq tanglayning shilliq qavatiga tegib tursa, bunday prikus birinchi shaklni tavsiflaydi. Agar jag'larning oldingi guruhdagi tishlari bir-biriga tegmasa, ular orasida yoriq bo'ladi. Bu esa vertikal yo'nalishda o'zgarishning ikkinchi shaklini tavsiflaydi.

3) Transverzal anomaliyalarga ikki ko'rinishdagi prikuslar kiradi:

a) birinchi shakli-bir tomonda tishlar jipslashuvi ortognatik prikusga xos bo'lib, ikkinchi tomonda esa yuqori jag'ning bir tomonlama toraygani sababli, pastki yon tishlar yuqoridagi tishlarni qoplab turishi bilan tavsiflanadi, bu-bir tomonlama qiyshiq prikus.

b) ikkinchi shaklida butun pastki jag' surilishi natijasida bir tomonda yuqori jag' pastki jag' tishlarining lunj do'mboqchalarini, ikkinchi tomonda esa pastki jag' tishlarining til do'mboqchalari yuqori jag' tishlarining lunj do'mboqchalarini qoplab turishi bilan tavsiflanadi-ikki tomonlama qiyshiq prikus. Qiyshik prikus-jag'ning chap yoki o'ng tomonga harakat qilishini ta'minlovchi mushaklar faoliyatining susayishy bilan ham ifodalanadi.

D.A. Kalvelis (1957) tasnifi tish jag' anomaliyalarining kelib chiqish ma'lumotlariga, morfologik o'zgarishlarning qanday darajada ekanligiga asoslangan. Tish jag' tizimi deformatsiyalari faoliyatining buzilishi haqidagi ma'lumotlar hisobga olinmagan. Mana shu tasnifning kamchiligi hisoblanadi. Muallif tish jag' anomaliyalarini 3 ta katta guruhga buladi.

I. Ayrim tishlar anomaliyasi

II. Tish qatorlari anomaliyasi

III. Prikus anomaliyalari.

I. Ayrim tishlar anomaliyasi:

1) Tishlar soni anomaliyasi:

a) adentiya: to'liq va qisman (gipodontiya)

b) ortiq sonli tushlar (giperodontiya)

2) Tishlarning o'lchov va shakl anomaliyasi:

a) gigant tishlar (o'ta katta),

b) tikansimon tishlar

c) xunuk tishlar

d) Getchinson, Furne, Turner tishlari

3) Tishlar qattiq to'qimalarining tuzilish anomaliyasi:

a) gipoplaziya (sabablari-raxit, tetaniya, dispepsiya, bolalarning og'ir yuqumli kasalliklari, zaxm va boshqalar).

4) Tishlar chiqish jarayonining buzilishi:

a) tishlarning muddatidan oldin chiqishi,

b) tishlarning kechikib chiqishi; kasallik oqibatida (raxit va boshqa og'ir kasalliklar) sut tishlarining barvaqt olinishi tufayli tish murtagining noto'g'ri joylashuvi oqibatida tishlarning qadalib qolishi (persistent tishlar) giperodontiya tufayli tishlarning noto'g'ri rivojlanishi natijasida (follikulyar kistalar).

II. Tish qatorlari anomaliyasi:

1) Tish qatori shakllanishining buzilishlari:

a) ayrim tishlarning anomaliya holati: tishlarning lab, lunj, tanglay, til, medial, distal tomondan chikishi, tishlarning past joylashishi (infraokklyuziya), tishlarning yuqori joylashishi (supraokklyuziya), tishlarning o'z o'qi atrofida aylanib qolishi (tortoanomaliya), transpozitsiya, yuqori jag' qoziq tishlarning distopiyasi (joyining o'zgarishi).

b) tishlar o'rtasidagi tremalar (diastema),

c) tishlarning zich joylashishi

2) Tish qatorlari shaklining anomaliyalari:

- a) toraygan tish qatori
- b) egarsimon bukilgan tish qatori
- c) tish qatorining V-simon shakli
- g) to'rtburchaksimon tish qatori
- d) asimmetrik tish qatori

III) Prikus anomaliyalari:

1) Prikusning sagittal anomaliyalari: a) prognatiya b) progeniya (soxta, chin).

2) Prikusning transversal anomaliyalari

a) yalpisiga toraygan tish qatorlari

b) yuqori va pastki tish qatorlarining bir-biriga eni bo'yicha mos kelmasligi har ikki tomonlama yon tishlar munosabatining buzilishi, bir tomonda tishlar munosabatining buzilishi (qiyshiq va kesishgan prikus) nafas olish faoliyatining buzilishi.

3) Prikusning vertikal anomaliyalari:

a) chuqur prikus,

b) ochik prikus chin (raxit oqibatida), soxta jarohatli (barmoqlarni, til va labni surish natijasida).

Muallif V.Y. Kurlyandskiy (1957) bo'yicha shakl bilan faoliyat o'rtasida bir-biriga bog'liqlik bo'lsa, ulardan biri asosida anomaliyaning har qanday turiga tavsif berish mumkin. Uning tuzgan tasnifi aloxida morfologik o'zgarishlar e'tiborga olingan. Kamchiliklari-bu tasnifda pastki jag' yonga siljiganda va tish hamda tish yo'ylarining distal tomonga surilishi natijasida yuzaga keladigan anomaliyalar tasnifdan joy olmagan. Shuningdek, tish jag' tizimi anomaliyalarining etiologik omillari tasnif asosiga kiritilmagan. V.Y. Kurlyandskiy bo'yicha tish jag' tizimi anomaliyalari quyidagi 3 guruhga bo'linadi.

I. Tishlar shakli va joylashishi anomaliyasi:

1) Tishlar o'lchami va shakl anomaliyalari:

- a) makrodentiya
- b) mikrodentiya

- c) tikansimon tishlar
- d) kubsimon va boshqa shakldagi tishlar
- 2) Ayrim tishlarning joylashish anomaliyasi:
 - a) o'z o'qi atrofida aylanishi
 - b) og'iz dahlizi yoki og'iz bo'shligi tomon surilgan
 - c) medial yoki distal yo'nalishda surilgan
 - d) tish toji balandligi buzilgan.

II. Tish qatorlari anomaliyasi:

- 1) Tishlarning shakllanishi va chiqish anomaliyalari:
 - a) tishlarning va ular murtagining bo'lmasligi (adentiya)
 - b) to'liq komplektdan ortiqcha tishlarning bo'lishi
- 2) Tishlarning qadalib qolishi
 - 1) Tishlar orasidagi masofaning buzilishi (diastema, trema)
 - 2) Alveolyar o'simtlarining notekis rivojlanishi (o'smay qolgan yoki o'ta rivojlangan).

- 3) Tish qatorining torayishi yoki kengayishi
- 4) Bir nechta tishlarning anomal holatda joylashishi

III. Tish qatorlarining o'zaro munosabatlari anomaliyalari:

- 1) Ikkala jag'ning haddan tashqari o'sib ketishi
- 2) Yuqori jag'ning haddan tashqari o'sib ketishi (prognatiya)
- 3) Pastki jag'ning haddan tashqari o'sib ketishi (progeniya)
- 4) Ikkala jag'ning o'smay qolishi
- 5) Yuqori jag'ning o'smay qolishi (mikrognatiya)
- 6) Pastki jag'ning o'smay qolishi (mikrogeniya)

L.V. Ilina-Markosyan tasnifi (1967) og'iz va og'iz atrofidagi mushaklarning katta ahamiyatini, chakka-pastki jag' bo'g'imi tuzilishi o'ziga xosligini e'tiborga olib, o'z tasnifini kiritdi. Yuqorida keltirilgan hech bir tasnifda bunday tashxislash bo'lmagan. Qabul qilingan 3 guruh: sagittal, transversal va vertikal anomaliyalarning har biri ichida yana bo'linadi: pastki jag'ning surilishsiz (gr-A) va pastki jag'ning surilishi bilan (gr-B). C guruhga 1 va 2-guruhda uchrovchi

aralash anomaliyalar ham kiritilgan. Pastki jag'ning surilishsiz prikuslariga - chin ko'rinishi kiradi. Bunday tasniflash muhim ahamiyatga ega. Surilish bilan bo'lgan barcha anomaliyalarning soxta ko'rinishi va ularni davolash o'ziga xos umumiylikka ega:

1. Ular barcha yoshlarda tug'rilanishi kerak.
2. Ularni davolash qiyin va uzoq muddatli emas.
3. Davolash jarayonida og'iz va og'iz atrofidagi mushaklar faoliyatini yaxshi-lashga harakat qilish, zararli odatlarni tashlash kerak.

L.V. Ilina-Markosyan distal, mezial degan terminlar o'rniga posterial-orqaga va arterial-oldinga, lateral-yonga degan terminlarni ishlatishni tavsiya etgan. Bu terminlar tish qatorlaridagi nomutanosibliklarning yo'nalishini aniqroq ifodalaydi.

Tish jag' tizimi anomaliyalari va deformasiyalarining umumiy qonuniyatlarini aniqlash umumiy etiologiyaning asosiy masalalaridan biridir. Etiologiya o'z navbatida tish jag' tizimi patogenetik holatining paydo bo'lish sabablari va shartlari haqidagi ta'limotdir. Patogenetik holatni paydo qiluvchi omillar tashqi va ichki sabablarga asoslanadi. Tashqi muhit orqali bevosita organizmga ta'sir qilishi natijasida umuman organizmda, masalan, tish jag' tizimida anomaliya yoki deformasiyalarning yuzaga chiqishiga tashqi sabablar, organizmning buzilishiga olib keluvchi omillar esa ichki sabablar deyiladi. Bu sabablar o'zi paydo qilgan o'zgarishlarning sifat va boshqa maxsus xususiyatlarini belgilaydi. Patologik holat jarayonining sababi bilan sifati o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash kasallikning oldini olish va davolash uchun zarurdir.

Tish jag' tizimida anomaliya va deformasiyalarning kelib chiqishiga sharoitning ham ta'siri bor. Sharoit qulay bo'lsa, sabab ta'sirini zaiflashtirish yoki aksincha, noqulay bo'lsa, organizmning turg'unligini oshirib yoki zaiflashtirib sabab bo'luvchi ta'sirini kuchaytirishi mumkin.

Patogenez - etiologiya bilan chambarchas bog'langan bo'lib, anomaliya va deformasiyalarning paydo bo'lish mexanizmi va avj olish haqidagi ta'limotdir. Patogenezni o'rganish anomaliyalar va deformasiyalar rivojlanishining barcha bosqichlarini - ularning almashinuv va bir - biri bilan aloqasini tekshirishni talab

etadi. Sabab - oqibat munosabatlarini aniqlash patogeneznining eng muhim masalalaridan biridir, chunki u tish va jag anomaliyalari va deformasiyalari paydo bo'lishining asosiy mexanizmini topish imkonini beradi va shunga ko'ra patogenetik davolashni belgilashga yordam beradi. Shunday qilib, etiologiya va patogenezni bir - biriga bog'liq holda ko'rish, ularni o'rganishda bir xil ahamiyat berish zarur.

Tish jag' tizimi deformasiyalarini etiologiyasi va patogenezi nuqtai nazaridan uch guruhga bo'lish mumkin:

- irsiy
- tug'ma
- orttirilgan.

Ba'zi olimlar prikus anomaliyalari irsiy yo'l bilan o'tadi deb ta'kidlab, ularning shakli, turlariga tish jag' tizimi deformasiyalarining progenik va chuqur prikuslarini, hamda diastemani kiritadilar. Ammo prikus anomaliyalarining irsiy yo'l orqali o'tishi haqidagi masalalar juda chigal va hozirgacha yaxshi o'rganilmagan va ilmiy tasdiq topmagan deyilsa bo'ladi. Lekin ayrim shaxslarda irsiy tomondan tish jag' tizimi anomaliyasi va deformasiyalariga moyillik bo'lishi aniqlangan. Tish jag' tizimi deformasiyalarining etiologiyasi va patogenezida faqat tug'ma va orttirilgan omillarning ahamiyati yaxshi farqlanib tasdiqlangan. Jag' suyaklari va tish yoylari anomaliyalarining kelib chikishiga ona homiladorlik paytida homila suyuqligining sharoitlari ham sabab bo'lishi mumkin. Unga ona bachadoni devorlari orasida amniotik payning ochilib ketishi, amniotik suyuqlikning homilaga bosimi, shuningdek, amnion xajmining xomila xajmiga tug'ri kelmasligi (Vaynberger) kabi omillar kiradi. Bu omillar lab va tanglayda kemptiklar va shu kabi boshqa anomaliyalarni keltirib chiqaradi. Anomaliyalar, shuningdek, homilador ayol organizmining umumiy kasalliklari, ovqatlanishi, og'ir ish va yashash sharoitlari, hamda tor kiyim - kechaklar kiyishi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Embrional davrda yuzaga keladigan anomaliyalarga yuz-jag' o'simtalarining qo'shilib o'sishining buzilishi natijasida yuzaga keladigan yumshoq va qattiq tanglay, lab kemptiklari kiradi (A.Y. Kats). Shunindek, bosh

suyagi yarmining rivojlanishi susayishi natijasida bir tomonlama mikrogeniya kelib chiqishi mumkin (A. A. Limberg). Homilador ayol o'tkir yuqumli kasalliklar bilan og'riganda homilasining rivojlanishi keskin o'zgaradi va turli o'zgarishlarga olib keladi. Bola hayoti davomida orttirilgan omillar, jumladan endokrin, o'tkir yuqumli va bolalarning boshqa kasalliklari (raxit, burun - xiqqildoqning patologik holati, zararli odatlar, ovqatlanishining buzilishi), tish jag' tizimida deformasiyalarga olib keladi. Endokrin bezlarning faoliyati buzilsa, chaynash a'zolarining rivojlanishiga ta'sir etib, patologik holatlarni yuzaga keltiradi. Masalan, qalqonsimon bezning faoliyati susaysa, jag' va suyaklarning o'sishi sekinlashadi, tishlar kechikib chiqadi va boshqalar.

Gipofiz bezining faoliyati buzilsa, makro yoki mikrognaftiya, qalqonsimon bez, ichki sekresiya bezlarining faoliyati buzilsa, kaltsiy almashinuviga salbiy ta'sir etib, jag' suyaklarining deformasiyalariga chidamlilikni pasaytiradi. Qon aylanishi, oshqozon - ichak kasalliklari va boshqa ichki a'zolar patologiyasi, shuningdek, bolaning har xil o'tkir yuqumli kasalliklari bilan kasallanishi organizmning reaktivligini pasaytiradi, to'g'ri o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etadi. Organizmning tuzilishi va faoliyatining bir butunligini hisobga olganda, bolaning boshdan kechirgan barcha kasalliklari tish – jag' tizimini rivojlanishiga bevosita ta'sir etib, anomaliya va deformatsiyalarga olib keladi. Bunga raxit kasalligi yaqqol misol bo'lishi mumkin. Organizmda garmonlar yetishmasligi natijasida (avitaminoz D) minerallar almashinuvi buziladi, natijada raxit kasalligi yuzaga keladi. Bunda asosan suyak tuzilmalarida muayyan o'zgarishlar ro'y beradi. Kasallangan bolalarda chaynov mushaklarining faoliyatida bosimning ortishi bilan minerallar yetishmasligi oqibatida jag' suyaklarida deformatsiyaga moyillik tug'iladi. Pastki jag' ko'proq mushaklar ta'sirida (og'iz ochilishi, yopilishi) bo'lganligi uchun o'zining parabola shaklini o'zgartiradi va tishlar yoyining oldingi qismi yarim aylana shaklidan yassi holatga o'tib, oldingi tishlar joylashuvida anomaliya hosil b'ladi. N.I. Agapov bu holda pastki katta oziq tishlarning jag' - til osti mushagining ta'siri natijasida til tomonga og'ib turishini aniqlagan. Raxit o'z navbatida yuqori jag'ga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi (A.Y. Kats).

L.V. Ilina - Markosyan tajriba yo'li bilan raxitning jag' suyaklariga va tish yoylariga ta'sirini o'rgangan va quyidagi xulosalarga kelgan:

1) raxitda suyaklanishning buzilishi jag' suyaklarining xam taraqqiyotini susaytiradi;

2) jag'lardagi suyak tuzilishining buzilishi tish chiqishi vaqtini o'zgartiradi va o'z vaqtida jag'lar o'sishini pasaytiradi;

3) pastki jag'ning shoxlari soxasida raxitning keskin ko'rinishga ega bo'lishi bu sohaning tez usishiga moyillik borligidan dalolat beradi va buni raxitning eng ko'p ta'sir etadigan joyi deb bilsa buladi.

Anomaliyaning kelib chiqishida, ayniqsa, yuqori jag' va qisman pastki jag'da, yuqori nafas olish yo'llarining kasallanishi muxim rol o'ynaydi. Ayniqsa, burun va xiqqildoq oldi sohalarining patologik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Pirogov limfatik xalqasining yallig'lanishi natijasida xiqqildoqning ikkala tomonidan joy olgan tanglay murtaklarining yoki xiqqildoqning gumbazidagi xiqqildoq murtaklarining gipertrofiyasi kelib chiqadi. Bu esa o'z navbatida prikus anomaliyalarini keltirib chiqaradi. Shunindek, burunda o'smalar (polip) yoki burun to'sig'ining qiyshyishi kuzatilsa, burun bilan nafas olish buziladi, va bola faqat og'zi bilan nafas ola boshlaydi, natijada tish jag' anomaliyalari kelib chiqishi uchun sharoit yaratiladi.

Burun bilan nafas olishning butun organizm uchun ahamiyati katta. Chunki atmosfera havosi burun orqali o'tganda u mexanik va biologik tozalanadi. Sovuq havoning harorati pasayadi, shilliq bezlari yordamida namlanadi va boshqalar. Og'iz bo'shlig'ida esa bu hodisalar ro'y bermaydi, chunki og'iz bo'shlig'i nafas olish uchun moslashmagan. Og'iz va burun yondosh boo'lib joylashganligi tufayli burun bilan nafas olishning buzilishi tish jag' tizimida sezilarli darajada deformatsiyaga olib keladi, natijada yuqori jag suyagi torayadi va uzayadi, oldingi qatordagi tishlar zichlashadi, tanglay gumbazi baland ko'tarilib qoladi. Deformatsiya mexanizmi quyidagi sabalar orqali kechadi. Og'iz yordamida nafas olganda bola doimo og'zini ochiq holda saqlashi lozim. Bu vaqtida lunj mushagining odatdagidan ko'proq taranglashishi natijasida tish yoylarining yon

qismlari siqiladi, burun bilan nafas olganda, og'iz yopiq bo'ladi va til qattiq tanglayga tegib turib, ichkaridan tish yoylarining yon qismlarini bosadi. Bu bilan lunj mushagi bosimiga qarshilik ko'rsatilib, qattiq tanglay yon qismlarining siljishiga yordamlashadi. Og'iz bilan nafas olganda og'iz bo'shlig'i doimo ochiq, til esa yuqori jag' tanglayiga emas, balki pastki jag'ga tegib turadi. Bu vaqtda yuqori jag'ning lunj mushagi bosimiga qarshi kuchi kamayadi, natijada yukori jag' tishlar yoyi torayadi. Agar burun bo'shlig'i patologik o'zgarishlarga uchragan bo'lsa, bu vaqtda burun o'zining bir maromdagi vazifalarini bajara olmay qoladi va rivojlanishi buziladi. Shu tufayli butun yuz skeleti suyaklarining rivojlanishi susayadi. Til, xiqqildoq, tanglay murtaklarining gipertrofiyasi natijasida burun, xiqqildoq qismlaridagi nafas yulining siqilishi ro'y beradi, bu esa prikus anomaliyalarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Bolaning zararli odatlarga (barmoqlarni, tilni, labni, so'rg'ich va boshqalarni so'rishi) o'rganib qolishi va ularni to'xtovsiz bajarib ham anomaliyalarning rivojlanishiga olib keladi. Barmoqlarni yoki boshqa narsalarni qanday usulda so'rishga odatlanganiga qarab, distal, medial, ochiq yoki qiyshiq prikuslar yuzaga keladi. Agar bola barmoqlarini pastki jag'ini oldinga surgan holda so'rsa, pastki tishlarini orqadan oldinga qarab va yuqori tishlarini esa oldindan orqaga qarab bosadi. Buning natijasida mezial prikus yuzaga keladi. Agar bola barmoqlarini so'rayotganida kafti bilan pastki jag'ini oldingi qismidan orqaga qarab, barmoqlarining uchi bilan yuqori old tishlarini orqadan oldinga qarab bosganda distal prikus hosil bo'ladi. Agar barmoqlarini jag'larning oldingi qatoridagi tishlari orasida so'rsa, unda tishlarga vertikal yunalishdagi bosim ko'proq tushadi va ochiq prikus yuzaga keladi. Mabodo barmoqlarini yoki boshqa narsalarni jag'larining faqat bir tomonida so'rsa, bir tomonlama kesishgan prikus rivojlanadi. Ba'zi bolalarda lunjni so'rish, lab bilan tishlarga bosim berish, til bilan tishlarining oldingi qismiga va vertikal tomoniga bosish kabi zararli odatlar uchraydi. Bunday holatlar ham o'z navbatida tish jag' tizimining turli normadan chetlanishlariga va deformatsiyalariga olib kelishi mumkin.

Shu narsa ma'lumki, inson a'zolarining faoliyati va shakli o'rtasida bog'liqlik mavjud. Chaynov a'zolari faoliyati tug'ri va mutanosib bo'lmasligi oqibatida ularda shakl o'zgarishi mumkin. Shuning uchun anomaliyaning kelib chiqishiga bolani sun'iy ovqatlantirish ham sabab bo'ladi. Go'dakni tabiiy ovqatlantirishda u ona ko'krigidan sutni so'rib chiqarishi uchun pastki jag'ni bir maromda oldinga qarab harakat qildirishi lozim. Bu esa jag' suyaklarining rivojiga va ortognatik prikusning shakllanishiga ijobiy yordam beradi. Bolani sun'iy ovqatlantirishda pastki jag'ni oldinga surish talab qilinmaydi. Bu hol so'rish faoliyatining susayishiga, oqibatda prikus anomaliyasining rivojlanishiga olib keladi. Bolalarning rivojlanayotgan chaynov a'zolari faoliyatining susayishiga yumshoq holdagi ovqatlarni iste'mol qilish ham ta'sir etadi. Shuningdek, noxush omillar - tishlarning kariyes bilan zararlangani, muddatidan ilgari sut tishlar tojining buzilishi, yoki yemirilishi ham o'z navbatida anomaliyalarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Anomaliyaning rivojlanishiga faqatgina ovqatning yumshoq yoki qattiqligi emas, balki uning tarkibi (mineral va darmon dorilar miqdori) ham muhim ahamiyatga ega.

Tish jag' tizimi anomaliyalari va deformatsiyalari etiologiyasida bu soha a'zolarining patologik holati asosiy qismni egallaydi. Masalan, jag' suyaklaridagi yallig'lanish asoratlari sifatida mikrogeniya va tish jag' tizimining boshqa shakl o'zgarishlarini ko'rsatish mumkin. Tishlarni muddatidan oldin yo'qotish tish jag' yoylarining deformatsiyasiga olib keladi. Birinchi katta oziq tishning o'z vaqtida chiqishi alveolar yoyining shakllanishida juda muhimdir.

Yuqorida bayon qilinganlardan xulosa shuki, tish jag' tizimida turli anomaliyalar va deformatsiyalarning kelib chiqishi ichki va tashqi omillarga bog'liqdir. Lekin har doim ham kasallikning birinchi sababini, etiologiyasidagi asosiy omilni oson aniqlash mumkin bo'lavermaydi. Etiologik va patogenetik omillar doimo birga uchraydi, biri asosiy, ikkinchisi yordamchi bo'lib, yoki birgalikda kasallikning umumiy ko'rinishini hosil qiladi. Kasallikni aniqlashdagi qiyinchilik shundaki, biz bolalarni ko'rikdan o'tqazayotganda etiologik va patogenetik mexanizmlari bilan emas, balki uning og'ir asoratlari bilan

to'qnashamiz. Shuningdek, kasallik tarixidagi ma'lumotlarini aniq to'plab bo'lmaydi, ko'pincha, ota - onalar ham bolalarda kasallik rivojlanishining barcha shart – sharoitlari haqida aniq ma'lumotlar bera olmaydilar. Shuning uchun shofokor har doim chuqur nazariy va amaliy bilimga ega bo'lgan holda sinchkovlik bilan barcha ko'rik, laboratoriya tekshirishlarini, ularning natijalarini umumlashtirib taxlil qilishi va patologik holatning kelib chiqish sababini, rivojlanishidagi muhim omilni aniqlash orqali ularga qarshi patogenetik davolash rejasini tuzishi kerak.

Tashxis kuyidagi ketma-ketlikda tuziladi:

1. Prikus anomaliyalar (distal, mezial va boshkalar)
2. Kushimcha anomaliyalar: tish katorlarining torayishi. tishlarning notugri joylashishi
3. Yumshok tukimlar tomonidan funksional siljishlar (til, lab, lunj, yugancha)
4. Tishlar va tish katorlari nuksonlari, yuldosh kasal likdan, buzilishlari va ularning etiologiyasi
5. Funksiyalar buzilishi
6. Estetik buzilishlar

4. Mashg'ulotda qo'llaniladigan yangi pedogogik texnologiyalar:

1. «Charxpalak» o'yinini o'tkazish.
2. “TJT tizimi anomaliyalari tasnifi” mavzusida organayzer tuzish - (Klaster)

« Charxpalak» nomli o'yinini o'tkazish uslubi.

Ish uchun zarur:

1. Qog'ozda aks ettirilgan vaziyatli masalalar
2. Rangli sterjenli ruchkalar (ko'k, qora, qizil va yashil)
3. Ishning borishi
4. Guruh har biri 3-4 kishilik kichik guruhlariga bo'linishadi

5. Har bir guruh alohida stolga o'tiradilar, guruh a'zolari har biri alohida rangli sterjenlarni tanlaydilar
6. Har bir talabaga alohida vaziyatli masalalar tarqatiladi
7. Guruh a'zolari uchun vaziyatli masalalar bir xil
8. Talabalar A4 formatli qog'ozda sana, guruh raqami, talaba ismi familiyasini yozadi
9. Talabalar 10 daqiqa davomida o'ylashadi va javobni qog'ozga yozishadi
10. Vaqt tugashi bilan guruh a'zolari tartib bilan qog'ozlarni almashishadi
11. Har bir talaba boshqa talaba qog'oziga o'zi tanlagan rangli ruchka bilan o'z javobini yozadi.

5. Nazorat savollari.

1. E. Engl tasnifining asosi nima?
2. Kontorovich tasnifining prinsipial asosi nima?
- 4 V. Yu. Kurlyandskiy tasnifining prinsipial asosi nima?
5. Kalvelis tasnifining prinsipial asosi nima
6. Ilina-Markosyan tasnifining prinsipial asosi nima?
7. Kats tasnifi nimaga asoslangan?
8. Ortodontiyada norma tushunchasi?
9. Patologik prikus turlari?
9. Fiziologik prikus turlari?

Testlar:

1. Engl tasnifi hisoblanadi?
 - A. morfologik
 - B. klinik-morfologik
 - C. funksional
 - D. etiologik

E. morfo-etilogik

2. Kats tasnifida kuyidagi mushaklar funksiyasi xisobga olinadi.

A. pastki jagni suruvchi

B. ko'taruvchi

C. tushiruvchi

D. ogizning aylana mushagi

E. tish katorini urovchi

3. Prikusning 3ta yunalishdagi anomaliyasi qaysi tasnifda hisobga olinadi?

A. Ilina-Markosyan

B. Engl

C. Kats

D. Kurlyandskiy

E. Kantarovich

4. Kantorovich tasnifining prinsipial asosi nima?

A. anomaliyalar endogen, ekzogen va pastki jag'ning hosil bo'lishi bilan bog'lik

B. Chaynov mushaklarining funksional patologiyasi hisobga olinadi

C. Anomaliyalar alohida tishda, tish qatorida, prikusda. Jag'ning rivojlanishiga qarab guruhlanadi

D. Anomaliyalar alohida tishda, tish qatorida, prikusda. Prikus anomaliyalari sagittal, vertikal, transverzal yo'nalishda bo'ladi.

E. O'g'iz va og'iz atrofi mushaklari hisobga olinadi, ChPJB tuzilishiga e'tibor beri ladi.

5. V. Yu. Kurlyandskiy tasnifining prinsipial asosi nima?

A. Anomaliyalar alohida tishda, tish qatorida, prikusda. Jag'ning rivojlanishiga qarab guruhlanadi

B. Chaynov mushaklarining funksional patologiyasi hisobga olinadi

C. Prikus anomaliyalari sagittal, vertikal, transversal yo'nalishda buladi.

Chaynov mushaklarining funksional patologiyasi hisobga olinadi

D. O'giz va og'iz atrofi mushaklari hisobga olinadi, ChPJB tuzilishiga e'tibor beriladi.

E. 6|6_:6|6 munosabati hisobga olinadi.

6. D.A. Kalvelis tasnifida prikusning sagittal anomaliyalari qaysi atama bilan ataladi?

A. posterial prikus

B. anterial prikus

C. progeniya

D. prognatiya

E. mezial prikus

7. A.I. Betelman tasnifida prikusning sagittal anomaliyalari qaysi atama bilan ataladi?

A. posterial prikus

B. anterial prikus

C. distal prikus

D. mezial prikus

E. prognatiya, progeniya

8. L.V. Ilina-Markosyan tasnifida prikusning sagittal anomaliyalari qaysi atama bilan ataladi?

A. anterial prikus

B. mezial prikus

C. distal prikus

D. posterial prikus

E. prognatiya, progeniya

9.L.V. Ilina-Markosyan tasnifida prikusning sagittal anomaliyalari qaysi atama bilan ataladi?

- A. arterial prikus, posterial prikus
- B. distal siljish, pastki jagning mezial siljishi
- C. prognatiya, progeniya
- D. mezial prikus, distal prikus
- E. Jagning meyyoridan ortik usishi

6. Vaziyatli masalalar

1. Bola 14 yoshda. 23 va 13 tishlar tish yoyi oldida va okklyuzion tekislik ustida joylashgan. Tish qatorida ular uchun yetarli joy mavjud. Birinchi doimiy molyarlarning nisbati to'g'ri. Diagnostika D.A. Kalvelisga ko'ra qo'ying?

- A. 13 va 23 tishlarning vestibulyar holati
- B. 13 va 23 tishlarning suprapozitsiyasi
- C. 13 va 23 tishlarning vestibulyar holati va suprapozitsiyasi
- D. Qozik tishlari distopiyasi
- E. Birinchi sinf anomaliya

2. Bola 12 yoshda. Yuqori old tishlar vestibulyar egilgan. Yuqori tish qatori shakli V-formali, old tishlar orasida trema va diastema mavjud. Birinchi doimiy molyarlar shipslashuvi normada. Engl tasnifiga ko'ra tashxis qo'ying.

- A. Prognatik tishlov
- B. 2-sinf anomaliyasi
- C. Yon sohalarda siqilish bilan prognatik tishlov
- D. Pastki jag'ning mikrognatiyasi
- E. 3-sinf anomaliyasi

3. Bola 7 yoshda. 11 va 12 tishlar orasidagi diastema bor. 12 va 22 tishlar yorib chiqishning dastlabki bosqichida. Birinchi doimiy molarlarning nisbati to'g'ri. Diagnostika D.A. Kalvelisga ko'ra qo'ying.

- A. Tishlar sonining anomaliyalari
- B. Tishlarning kattaligidagi anomaliyalar
- C. Tish chiqishi anomaliyasi
- D. Tishlarning shakllanishidagi anomaliyalar
- E. Tishlar shaklidagi anomaliya

4. Ko'rik o'tkazilganda bolada quyidagilar aniqlanadi. Yuqori kurak tishlari pastki kurak tishlarni to'liq qoplaydi, pastki kurak tishlarni kesuvchi qirradi yuqorigi tishlarni bo'yin qismidagi shilliq qavatga tirilib to'radi. Sagittal va transverzal yuzalarda o'zgarish aniqlanmagan. Bu prikus qanday nomlanadi?

- A. Chuqur
- B. Kesuv tishlarni chuqur koplashi
- S. ortognatik prikus
- D. tug'ri prikus
- E. biprognatiya

5. Qanday belgi hisobiga ushbu tashxis qo'yilgan

- A. sagittal yoriq
- B. teskari sagittal yoriq
- S. gurux tishlarni kesishmasligi
- D. kesuvchi qirralik kontakt bo'lmasligi
- E. yuqori va pastki tish yoyini kengligini tug'ri kelmasligi

6. 9 yoshli bola og'iz bo'shligini ko'zdan kechirganda yuqorigi 1 orqaroqda turibdi, pastki 21!12ga tish qatorida joy yetishmaydi. 616 quyidagicha

munosabatda: yuqorigi 6-tish medial lunj dumbog'i o'z antagonistining do'mboqlararo fissurasida joylashadi. 1. Engl bo'yicha sinfini aniqlang:

- A. I sinf
- B. II sinf 1 gurux
- C. II sinf 2 gurux
- D. III sinf

2.Engl va Kurlyandskiy tasnifi buyicha tashxis qo'ying.

- A) neytral prikus ! 1 .Kurleandskiy
- B) 11 tanglay xolati ! 2. Engl

7. Klinikaga 8 yeshli bolani yuqorigi 11 chiqmaganligiga shikoyat qilib olib kelishdi. Rentgenogrammani tekshirilganda 11 murtagi borligi aniqlandi, tish murtagi noto'g'ri shaklda va 11, 12 tushlar orasida joylashgan. O'tkazilgan tekshiruvlarga asoslanib tashxis qo'ying.

- A. Diastema
- B. Retensiya 11
- C. Adentiya 11
- D. Sverxkomplekt tish orasida
- E. 11 chikishda ushlanib kolishi.

8. 10 yoshli bolani ogiz bushligini ko'zdan kechirilganda yuqori va pastki jagda sagittal yoriq bor, kesuvchi qirrali kontakt buzilgan. Yuqorigi frontal tishlar vistibulyar tomonga chikkan. Pastki frontal tishlarning kesuv qirralari 21112 bo'yin qismi ortida tanglay shilliq qavatiga tegib turibdi. 6!6 munosabati quyidagicha: yuqorigi 6-tishning medial lunj do'mbog'i pastki 6-tishning do'mboqlararo fissurasidan oldinda turibdi. Bemorni tekshiring.

- A. I sinf
- B. II sinf 1 gurux
- C. II sinf 2 gurux
- D. III sinf

2. Taxminiy tashxis qo'ying.

A. distal prikus.

B. mezial prikus.

C. Ochiq rikus.

D. Chuqur prikus.

E. kesishgan prikus.

9. Bemor 12 yoshda. Og'iz bo'shlig'ini ko'rilganda tish qatorida 52 yo'qligi aniqlandi. Anamnezdan 52 sut tishi tushib ketgandan so'ng yorib chikmagan. Bemorni tekshiring.

A. 62 sohasini dental rentgen tasviri

B. CHPJB tomogrammasi

C. Ortopantomogramma.

D. Telerentgenogramma.

2. Tashxis kuying.

A. 12 birlamchi adentiyasi

B. 12 chikishda ushlanib kolishi

C. 12 retensiyasi

10. 7 yoshli bolani klinikaga olib kelishdi va ovqatlarni tishlay olmaslikka, ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilishga shikoyat qilishdi. Tashqaridan qaralganda yuzning pastgi qismi uzaygan, ogiz bo'shlig'ida frontal tishlar orasida 3-4 mm kattalikdagi vertikal yoriq mavjud. 1-molyarlar munosabati quyidagicha: 616 medial lunj do'mbog'i pastki 616 ning do'mboqlararo fissurasida turibdi. Engl bo'yicha sinfini aniqlang.

A. I sinf

B. II sinf 1 guruh

C. II sinf

D. III sinf

Adabiyotlar ro'yxati.

Asosiy:

1. Abduazimov A.D. Ortodontiya va bolalar uchun tish protezlari. - T., 2012 y.
2. Nigmatov R.N. Bolalar tishlarini protezlash / Darslik (O'zbek tili Lotin alifbosida). "Toshket tibbiyot akademiyasi bosmaxonasi".-T.- 2021.- 273 b.
3. Nigmatov R.N. Bolalar tishlarini protezlash. / Elektron darslik. - T.- 2024.
4. Nigmatov R.N., Shomuxamedova F.A. Ortodontiya. / Darslik. Tibbiyot oliy o'quv yurtlarining "Stomatologiya" fakulteti talabalari uchun. "Hilol Media".- 1-jild. -T.-2020. - 331 b.
5. Nigmatov R.N., Shomuxamedova F.A., Nigmatova I.M. Ortodontiya. / Darslik. Tibbiyot oliy o'quv yurtlarining "Stomatologiya" fakulteti talabalari uchun.- 2-jild. "Hilol Media".-T.-2021. - 420 b.
6. Хабилов Н.Л., Шаамухамедова.Ф. А, Арипова.Г.Е, Муртазаев.С.С, Мирсалихова.Ф.Л, Насимов.Е.Е «Ортодонтия с детским зубным протезированием». Тошкент, 2016.

Qo'shimcha:

1. Bolalarga qo'yiladigan ortopedik va ortodontik apparatlar tayyorlash texnikasi. // Nigmatov R.N., Aripova G.E., Murtazaev S.S., Fayzullaev S.A. / O'zbek tili Kirill imlosida. O'quv qo'llanma. Tibbiyot o'rta maxsus o'quv yurtlarining stomatologiya ishi fakulteti talabalari uchun. Toshkent, 2022.- 316 b.
2. Диагностика, лечение и профилактика вторичных деформаций зубных рядов в сменном прикусе. //Нигматов Р.Н., Нигматова И.М. / Монография. Ташкент. – 2021 – 147 с.
3. Дистел В.А. Пособие по ортодонтии. Учебное пособие. – Н.Новгород. Медицина. 2000 г.
4. Дуайт Даймон. Рабочая тетрадь ортодонта. Руководство по применению системы пассивного самолигирования Дамон Систем 2. Учебное пособие. – Санкт-Петербург. Медицина. 2008 г.
5. Kesishgan prikus. Etiologiya va patogenezi. Kesishgan prikusni tashxislash, klinikasi va davolash usullari. // Nigmatov R.N., Aripova G.E., Shomuxamedova F.A., Sulaymanova D.A., Kodirov J.M., Akbarov K.S. / O'quv-uslubiy qo'llanma. T. – 2021. – 32 b.
6. Классификация аномалий зубочелюстной системы и их диагностика. Виды физиологических и патологических прикусов. // Р.Н. Нигматов, С.С.Муртазаев, М.А.Мавлянова, Д.А.Сулейманова, Г.А.Муратова /Учебно-методическое пособие для студентов 4 курса. Т.-2022.- 31 с.
7. Клемин В.А. Диагностика и лечение заболеваний ВНЧС. Учебное пособие. – Москва. Медицина. 2010 г.
8. Методы диагностики и ортодонтическое лечение сужения зубных рядов верхней челюсти у детей. // Нигматов Р.Н., Кадыров Ж.М., Акбаров К.С. / Методические рекомендации. – Тошкент.- 2023. – 21 с.

9. Ortodontik apparatlar. // Nigmatov R.N., Nigmatova I.M. / Stomatologiya fakulteti talabalari uchun O'quv qo'llanma (O'zbek tili Kirill imlosida) "Toshket tibbiyot akademiyasi bosmaxonasi".-T.- 2022.- 172 b.
10. Ортодонтическое лечение сужения зубных рядов верхней челюсти при помощи несъемного ортодонтического аппарата. // Нигматов Р.Н., Кадыров Ж.М., Акбаров К.С. / Методические рекомендации. – Тошкент.- 2023. – 24 с.
11. Основы менеджмента и экономики в стоматологии.//Ризаев Ж.А., Маматкулов Б.М., Нигматов Р.Н., Тухтаров Б.Е., Мирворисова Л.Е., Нурмаматова К.Ч./ Учебное пособие для студентов медицинских высших образовательных учреждений. Издательство "Хилол Медиа".-Т.-2020. - 247 с.
12. Перекрестный прикус. Этиопатогенез, диагностика, клиника и методы лечения. // Нигматов Р.Н., Арипова Г.Е., Шомухамедова Ф.А., Сулайманова Д.А., Кодиров Ж.М., Акабаров К.С. / Учебно-методическое пособие. Т. – 2021. – 38 б.
13. Персин Л.С. Ортодонтия. Диагностика, виды зубочелюстных аномалий. Учебное пособие. – Москва. Ортодент-Инфо. 1999 г.
14. Проффит У.Р. Современная ортодонтия. 3-изд. Учебник. – Москва. Ортодент-Инфо. 2017 г.
15. Телерентгенография. Принципы расшифровки. //Р.Н. Нигматов, Г.Е.Арипова, М.А.Мавлянова, Д.А.Сулейманова, Ш.Р.Расулова /Учебно-методическое пособие для студентов 4 курса. Т.-2022.- 39 с.
16. Telerentgenografiya. Taxlil qilish tamoillari. //R.N. Nigmatov, G.E.Aripova, M.A.Mavlyanova, D.A.Suleymanova, Sh.R.Rasulova / 4 kurs talabalari uchun o'quv uslubiy qo'llanma. Т.-2022.- 38 b.
17. Tish, tish qatorlari va prikus anomaliyalarining tasnifi, ularni tashxislash. Patologik va fiziologik prikusni aniqlash. // R.N. Nigmatov, S.S.Murtazaev, M.A.Mavlyanova, D.A.Suleymanova, G.A.Muratova /4 kurs talabalari uchun o'quv uslubiy qo'llanma. Т.-2022.- 30 b.
18. Трезубов В.Н. Ортодонтия. Учебник. – Н.Новгород. Ортодент-Инфо. 2001 г.
19. Хорошилкина Ф.Я. Ортодонтия. Учебник. – Москва. Ортодент-Инфо. 2010 г.
20. Stomatologiyada menedjment va ekonomika asoslari. (Stomatologiyada menedjment va ekonomika asoslari). //Rizaev J.A., Mamatkulov B.M., Nigmatov R.N., Tuxtarov B.Ye., Mirvorisova L.Ye., Nurmamatova K.Ch./ Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma "Hilol Media" nashriyoti. -T.-2020. – 215 b.

Elektron ma'lumotlar quyidagi saytlardan olindi:

www.tma.uz/sf

www.ortodont.ru

www.Stomatolog.ru.

www.medinks.ru.

www.orthos.ru.

www.dentalcentr.com/ortodontiya

www.ortofil.ru

www.booksmed.ru.



TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI BO'YICHA

BUYRUQ

“6” *iyul* 20*24*y

№ *253 AF*

**Toshkent davlat stomatologiya instituti
qo'shma Kengashining 2024 yil 4 iyuldagi
9-10 sonli qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida**

Toshkent davlat stomatologiya institutining 2024 yil 4 iyuldagi 9-10 sonli qo'shma Kengashida muhokama etilgan masalalarni va qabul qilingan Qarorlarning ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Barcha prorektorlar, barcha dekanlar, barcha kafedra mudirlari, barcha bo'lim boshliqlariga:

1.1. Institut Kengashining 2024 yil 4 iyuldagi 9-10 sonli qo'shma qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. TDSI akademik litseyi direktori (Sh.A.Mirahimova) va O'quv ishlari bo'yicha prorektor (S.Baymakov)larga:

2.1. Akademik litsey bitiruvchilarining bilim, malaka va ko'nikma darajasini davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha YDAsi yuqori saviyada o'tkazilsin, hamda bitiruvchilarning OTMga kirish monitoringi yuritilsin.

3. TDSI akademik litseyi direktori (Sh.A.Mirahimova), Ishlar boshqarmasi boshlig'i (A.Suvonov), bosh hisobchi (F.Nasimov), reja-moliya bo'limi boshlig'i (A.Xasanova)larga:

3.1. Akademik litseyning 2019-2030 yillarga mo'ljallangan istiqbolli rivojlantirish dasturidagi vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida uch oy muddatda akademik litseyning moddiy texnik bazasi yanada takomillashtirilsin;

3.2. Ta'lim berishning yangi uslub va shakllarini qo'llashda, o'quv adabiyotlari va o'quv uslubiy qo'llanmalar yaratishda, shuningdek o'quvchilarning OTMga kirish ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishiga aniq hissa qo'shgan litsey pedagog hodimlari Nizom asosida moddiy rag'batlantirilsin.

4. O'quv ishlari bo'yicha prorektor (S.Baymakov), Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i (M.Abdullayeva), Xorijiy tillar kafedrasi mudiri (M.Isroilova) va barcha fakultet dekanlariga:

4.1. OTM professor o'qituvchilariga xorijiy tillarni o'rgatish maqsadida institut va til o'rgatuvchi markazlar o'rtasida shartnomalar imzolaniib professor o'qituvchilarni til bilish darajalarini inobatga olgan xolda chet tillari darslari tashkil etilsin;

4.2. Milliy va xorijiy fakultetlar talabalariga dars beruvchi professor - o'qituvchilarni darslarini jahon andazalariga mos ravishda to'g'ri va sifatli tashkil etilishi yo'lga qo'yilsin;

4.3. Talabalar o'rtasida til sertifikatiga ega talabalarni rag'batlantirish va boshqa chet eldagi nufuzli OTMlarda akademik mobillik doirasida almashinuvlar ishtroki ta'minlansin;

4.4. Xorijiy tillar kafedrasida professor o'qituvchilari tarkibi va ularning salohiyati oshirilsin.

5. O'quv ishlari bo'yicha prorektor (S.Baymakov), Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i (M.Abdullayeva), Ishlar boshqarmasi boshlig'i (A.Suvonov), bosh hisobchi (F.Nasimov), reja-moliya bo'limi boshlig'i (A.Xasanova)larga:

5.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ-5117 sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq xorijiy tilda dars beruvchi til bilish darajasini baholovchi B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatlari mavjud professor o'qituvchilarni ustama xaqqlar bilan rag'batlantirish rivojlantirilsin.

6. O'quv ishlari bo'yicha prorektor (S.Baymakov), O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i (Q.Nurmamatova) va o'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ekspert hay'ati raisi (S.Yusupaliyodjayeva)larga:

6.1. Ekspertlar hay'ati tomonidan nashr etishga tavsiya etilgan o'quv adabiyotlarining nashr ruxsatnomalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish va institutning o'quv bo'limi mas'ul xodimlari orqali mualliflarga yetkazish ishlarini tashkil etilsin. (1- ilova)

7. Barcha prorektorlar, barcha dekanlar, barcha kafedra mudirlari, barcha bo'lim boshliqlariga:

7.1. 2024-2025 o'quv yilidan boshlab Stomatologiya fakulteti "1-stomatologiya fakulteti" va Bolalar stomatologiyasi fakulteti "2-stomatologiya fakulteti" deb yuritilsin.

7. Ushbu buyruqning ijrosi ustidan nazorat va javobgarlik O'quv ishlari bo'yicha prorektor S.R.Baymakov zimmasiga yuklatilsin.

Rektor

N.Xaydarov



TDSI Rektorining 06.07.2024 dagi
№ 258-FL sonli buyrug'iga
1- ilova

№	Muallif(lar)	O'quv adabiyotining nomi	O'quv adabiyot turi	Adabiyotni taqdim etayotgan OTM nomi	Yo'nalish yoki mutaxassislik kodi va nomi	O'quv rejasidagi fanning nomi
1.	Salimov O.R., Alieva N.M., Kamilov J.A., Axmedov M.R.	Stomatologiyaga kirish	Darslik	TDSI	60910100- Stomatologiya	Stomatologiyaga kirish
2.	Begmatov B.X., Raimkulova D.F., Aladova L.Yu.	Инфекционные болезни и эпидемиология	Darslik	TDSI	5510400 - Stomatologiya	Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya
3.	Baymakov S.R., Sharipov Y.Y., Aslonov Z.A.	Умумий хирургия	Elektron Darslik	TDSI	60910200- Davolash ishi	Umumiy xirurgiya
4.	Nigmatov R.N.	Prosthodontics in pediatric dentistry	Darslik	TDSI	5510400 - Stomatologiya	Bolalar tishini protezlash
5.	Nishanova A.A., Umrkulova S.X.	Молекуляр физиология	Darslik	TDSI	60910200- Davolash ishi	Molekular fiziologiya
6.	Israilova M.N., Askarova N.D.	Latin language and medical terminology	Darslik	TDSI	60910200- Davolash ishi	Lotin tili va tibbiy terminologiya
7.	Xalmuratova M.T.	Русский язык	Darslik	TDSI	60910200- Davolash ishi	Rus tili
8.	Bekjonova O.Ye., Alimova D.M., Astanakulova M.M., Kayumova V.R.	Пародонтология. I том	Darslik	TDSI	5510400 - Stomatologiya	Paradontologiya

№	Muallif(lar)	O'quv adabiyotining nomi	O'quv adabiyot turi	Adabiyotni taqdim etayotgan OTM nomi	Yo'nalish yoki mutaxassislik kodi va nomi	O'quv rejasidagi fanning nomi
84.	Rustamova X.Ye., Nurmamatova Q.Ch. Mirzaraximova K.R.	Magistrlik dissertatsiyasini tuzilishi, mazmuni, unga bo'lgan talablar, rasmilashtirish va himoya qilish	o'quv uslubiy qo'llanma	TDSI	60910100- Stomatologiya	Ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi
85.	Ismailov S.I.	Surgical disease of the liver and biliary tract	o'quv uslubiy qo'llanma	TDSI	5510100- Davolash ishi	Jarrohlik kasalliklari
86.	Nigmatov R.N., Aripova G.E., Murtazayev S.S., Nazarova S.J., Akbarov K.S.	Tish, tish qatorlari va prikus anomalialarining tasnifi, ularni tashxislash. Patologik va fiziologik prikusni aniqlash. TJT anomalialari va deformatsiyalarining etiologiyasi va patogenezi	o'quv uslubiy qo'llanma	TDSI	60910100 - Stomatologiya	Ortodontiya
87.	Nigmatov R.N., Aripova G.E., Mavlyanova M.A., Yusupaliyeva K.B., Kodirov J.M.	Ortodontik davolashda ozaga keladigan xato va asoratlar, ularni oldini olish va to'g'irlash. Ularni sabablarini oldini olish usullari	o'quv uslubiy qo'llanma	TDSI	60910100 - Stomatologiya	Ortodontiya
88.	Nigmatov R.N., Aripova G.E., Mavlyanova M.A., Yusupaliyeva K.B., Shamuxamedova F.A., Suleymanova D.A. Akbarov	Bolalarda tish yo'qotish sabablari. Bolalarga tayirlanadigan echiladigan tish protezlarining o'ziga xos xususiyatlari. Profilaktik protezlar	o'quv uslubiy qo'llanma	TDSI	60910100 - Stomatologiya	Ortodontiya
89.	Xabilov N.L., Safarov M.T., Sharipov S.S.	To'liq olib qo'yiladigan protezlarni implantatlar bilan protezlashdan keyingi muammo va asoratlar. (Ошибки и осложнения при полном съёмном	o'quv uslubiy qo'llanma	TDSI	60910100 - Stomatologiya	To'liq olib qo'yiladigan tish protezlash

